



## IQTISODIY TARBIYA.

**Sattorov Ravshan Tojiddinovich**

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madanyat talabasi

[Akhmedovdiyorbek7@gmail.com](mailto:Akhmedovdiyorbek7@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA:**

Iqtisodiy tarbiya, jamiyatning iqtisodiy bilimini oshirish, va yurtdoshlar o'rtasida iqtisodiy ongni rivojlantirish maqsadida zarur bo'lgan jarayondir. Ushbu maqolada iqtisodiy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy muammolari va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida bat afsil ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy tarbiya, Iqtisodiy bilim, Davlat siyosati, Ta'lim tizimi, Ijtimoiy ong

### **АБСТРАКТНЫЙ:**

Экономическое образование является необходимым процессом для повышения экономических знаний общества и развития экономического сознания соотечественников. В данной статье представлена подробная информация об особенностях экономического образования, современных проблемах и его значении в общественной жизни.

**Ключевые слова:** Экономическое образование, Экономические знания, Государственная политика, Система образования, Общественное сознание

### **ABSTRACT:**

Economic education is a necessary process in order to increase the economic knowledge of society and develop economic consciousness among compatriots. This article provides detailed information about the characteristics of economic education, modern problems and its importance in social life.

**Key words:** Economic education, Economic knowledge, State policy, Education system, Social consciousness





Iqtisodiy tarbiya jamiyatning iqtisodiy ko'nikmalarini oshirishda, ijtimoiy ongi shakllantirishda va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'yaydi. U o'quvchilarga iqtisodiy jarayonlarni tushunishga yordam berish bilan birga, kelajakda iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilimlarni beradi.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolarni iqtisodiy bozorga tayyorgarlik ko'rishdir. Bunga iqtisodiy bilimlarni kengaytirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish kiradi.

### Iqtisodiy tarbiyaning asosiy jihatlari

1. Iqtisodiy bilimlarning oshirilishi: Iqtisodiy tarbiya sifatida iqtisodiy nazariyalar, tushunchalar va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar iqtisodiy faoliyatning asosiy jihatlari, mablag'larni taqsimlash va xarajatlarni boshqarishni o'rganadilar.
2. Davlat siyosati va ta'lif tizimi: Iqtisodiy tarbiyaning muhim elementlaridan biri davlatning ta'limga bo'lgan siyosati hisoblanadi. Davlat mazkur jihatni qo'llab-quvvatlash orqali fuqarolarning iqtisodiy bilimlarini oshirishga intiladi.
3. Ijtimoiy ongi rivojlantirish: Iqtisodiy tarbiya orqali shaxs va jamiyatning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sod Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (keyingi o'rnlarda — vazirlik) hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida:

#### 1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining markaziy apparati tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi to'g'risida nizom 3-ilovaga muvofiq;





Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tuzilmasi, shuningdek, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmalarining hamda tumanlar (shaharlar) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limlari namunaviy tuzilmalari 4, 4a, 4b va 4v- ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmalari boshqaruv xodimlarining umumiyligi cheklangan soni 5-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limlari xodimlari mehnatiga haq to'lash razryadlari 6, 6a va 6b- ilovalarga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tuzilmasi 7-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumдорligi tadqiqotlari markazi tuzilmasi 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Toshkent shahar hokimligi Toshkent shahar iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshqarmasi hamda tumanlarning iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bo'limlarining amaldagi nomini, tashkiliy tuzilmasi va shtat birliklari sonini ushbu qaror talablariga muvofiqlashtirish choralarini ko'rsin.

## 2. Belgilansinki:

vazirlik markaziy apparati boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 298 tani tashkil etadi. Bunda, vazirlik va uning quyi tizimi tashkilotlarining boshqaruv xodimlari cheklangan sonini oshirish vazirlik huzuridagi Urbanizatsiya agentligini tugatish hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining, shuningdek, ularning hududiy bo'linmalari xodimlari sonini qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosarlari bir vaqtning





o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limlari boshlig‘i hisoblanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut), Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumдорligi markazi, Ma’muriy binolardan foydalanish boshqarmasi xodimlariga vazirlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, tibbiy xizmat, transport ta’minoti va ijtimoiy himoya shartlari tatbiq etiladi, shuningdek, ularga ko‘p yillik xizmatlari uchun ustama to‘lovlar davlat budgeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

Keyingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limlari xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-yanvardagi “Davlat boshqaruvi hududiy organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2722-son qarori 1-bandida nazarda tutilgan mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etiladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limlarining joriy ta’minoti va ular faoliyatini, shuningdek, xodimlariga ko‘p yillik xizmatlari uchun to‘lovlarни moliyalashtirish Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budgeti va viloyatlarning mahalliy budgetlari hisobidan amalga oshiriladi;

Institut hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi direktorlari maqomi va mehnatga haq to‘lash shartlari, tibbiy va transport ta’minoti sharoitlari bo‘yicha vazir o‘ribosariga tenglashtiriladi;

Institut xodimlariga transport va ovqatlanish xarajatlari uchun har oylik to‘lovlar hamda bayramlar munosabati bilan mukofot pullari vazirlikning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan to‘lanadi;





vazirlik, uning markaziy apparati va tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlari respublika darajasidagi, vazirlikning hududiy bo‘linmalari rahbarlari hudud darajasidagi davlat ulushiga ega xo‘jalik jamiyatlari kuzatuv kengashlarining a’zolari sifatida belgilangan tartibda ishtirok etishi mumkin;

vazirlik va uning quyi tizimi tashkilotlari xodimlarini faoliyat yo‘nalishiga xos bo‘lmagan ishlarga jalb qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Vazirlik tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qarorning 9-ilovasiga muvofiq iqtisodiyotni bozor mexanizmlariga o‘tkazishdagi fundamental masalalar va nomutanosibliklarni bartaraf etish, boshlangan islohotlarni mantiqiy davom ettirish, navbatdagi islohotlarga zamin yaratish borasida birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning “Yo‘l xaritasi” ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’milasini;

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda kambag‘al va ishsiz aholini, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Bunda:

kambag‘al, ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitishni mahalla, tuman (shahar) va hudud markazlari darajasida “mahallada kasb-hunarga o‘qitish maskanlari — tuman kasb-hunarga o‘qitish markazlari — hudud “Ishga marhamat” monomarkazlari” mexanizmi asosida amalga oshirish;

“mahallada kasb-hunarga o‘qitish maskanlari”ni Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi o‘quv markazlarining filiallari (bo‘linmalari) sifatida tashkil etish, shuningdek, ishsiz fuqarolar, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlarni Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirish tartibi;

2020-yil 1-iyulga qadar har bir hududda kamida bittadan “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat tashkilotlari o‘rtasida tanlov o‘tkazish, tanlov g‘oliblariga o‘z ishini tashkil qilish uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasidan grant ajratish tartibi;

nodavlat o‘quv markazlari va kasb-hunar ta’limi tizimi bitiruvchilarining kasbiy malakasini “world skills” (“world skills”) xalqaro standartlari asosida baholash tizimini joriy etish;





2020-yil 1-oktabrga qadar har bir hududda kamida bittadan “Ishga marhamat” monomarkazlari yoki kasb-hunarga tayyorlash markazlarini tashkil etish;

2020-yil 1-iyunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda Rossiya Federatsiyasining o‘zbekistonlik mehnat migrantlari eng ko‘p faoliyat yuritayotgan hududlarini aniqlab, dastlabki bosqichda kamida beshta shaharda migrantlarni kasbga o‘qitish va rus tilini o‘rgatishni tashkil etish hamda kelgusida ushbu ishlar qamrovi va ko‘lamini kengaytirish nazarda tutilsin.

6. Vazirlik, Moliya vazirligi, Moliya vazirligining budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat statistika qo‘mitasi va Institutning budgetdan tashqari mablag‘lari to‘liq safarbar etilganligini hisobga olgan holda, ushbu tashkilotlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish ishlari Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining qo‘srimcha daromadlari va respublika budgeti hisobidan moliyalashtirilsin.

7. Vazirlik markaziy apparati Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45a-uy manzilida hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mirobod ko‘chasi, 25-uy manzilida joylashtirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning barcha qulayliklarga ega bo‘lgan binolarda joylashtirilishini, shuningdek, zarur hollarda, ularga davlat mulki obyektlarini operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berilishini ta’minlasin.

Institut Toshkent shahri, Xadra massivi, 33-uy manzilidagi bino-inshootlarni ularga tutashgan yer maydoni bilan operativ boshqaruv huquqi asosida bepul qabul qilib olgan holda, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari yakunlangandan so‘ng joylashtirilsin.

8. Institut huzuridagi “Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar” jurnalni tahririyati” davlat unitar korxonasi tugatilsin hamda korxonaga yuklatilgan vazifalar va jurnalni chop qilishni tashkil etish ishlari Institut tarkibida tuzilgan tahririy-nashriyot bo‘limiga yuklatilsin.

Qayd etilsinki, jurnalni chop etish bilan bog‘liq xarajatlar Davlat budgeti, Institutning budgetdan tashqari hamda xo‘jalik faoliyatidan tushgan mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.





O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi vazirlik buyurtmanomasiga muvofiq Institutga nashriyot uskuna-jihozlari xarid qilish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zaruriy miqdordagi grant mablag‘lari ajratsin.

**9. Vazirlik tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda:**

vazirlik huzurida yangi tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va uning tizimiga kiritilgan tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning Nizomlarini tasdiqlash, barcha qulaylik va sharoitlarga ega bo‘lgan binolarga beg‘araz joylashtirish, moddiy-texnika bazasini yaratish va boshqa tashkiliy-texnik masalalarni hal etishni ta’minlasin;

vazirlik markaziy apparati hamda vazirlik huzurida yangi tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va uning tizimiga kiritilgan tashkilotlarning shtat jadvallarini ikki hafta muddatda tasdiqlasin hamda ularning malakali kadrlar bilan to‘ldirilishini ta’minlasin;

bir oy muddatda qonun hujjaligiga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirmsin;

bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjalarni mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

**10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Hukumatining ayrim qarorlariga 10-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.**

**11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.A. Gulyamov zimmasiga yuklansin.**

**Foydalanuvchi adabyotlar:**

1. Asimov, F. "Iqtisodiy tarbiya: nazariya va amaliyot", 2021.
2. Abdullaeva, N. "Iqtisodiy bilimlarni oshirish yo'nalishlari", "O'zbekiston ta'limi", 2023.
3. OECD, "Economic Education: A Key to Sustainable Development", 2022.
4. <https://lex.uz/en/docs/-4776766?ONDATE=28.12.2020>

